



O‘ZBEKISTONDA UMUMTA’LIM MUASSALARINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH OMILLARI

Yuldasheva Nodira Islomovna

Under the Cabinet of Ministers of the Republic
of Uzbekistan Higher School of Business and
Entrepreneurship MBA-Global Management
Master's Student

Phone: +998(94) 185 28 33

G-mail: nodi8504@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, umumta’lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimini samarali tashkil etish va sifatni oshirish bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Shu bilan birga, umumta’lim muassasalarini boshqarishda bir qator tizimli muammolar ham mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur.

Kalit so‘zlar: umumta’lim muassasalari, boshqaruv tizimi, ta’lim sifatini boshqarish, zamonaviy menejment, korrupsiya xavfi, ta’limda raqamli texnologiyalar, jamoatchilik nazorati, boshqaruvda shaffoflik, maktab mustaqilligi, ta’limda islohotlar.



Аннотация: На сегодняшний день одной из актуальных задач в Узбекистане является модернизация системы образования, совершенствование системы управления общеобразовательными учреждениями и внедрение современных механизмов управления. В нашей стране проводятся ряд реформ в сфере образования. В частности, Президент Шавкат Мирзиёев в рамках концепции «Новый Узбекистан» выдвигает важные инициативы по эффективной организации системы управления образовательными учреждениями и повышению качества. В то же время, в управлении общеобразовательными учреждениями существует ряд системных проблем, для решения которых необходим комплексный подход.

Ключевые слова: общеобразовательные учреждения, система управления, управление качеством образования, современный менеджмент, риск коррупции, цифровые технологии в образовании, общественный контроль, прозрачность в управлении, автономия школ, реформы в образовании.

Abstract: Nowadays, one of the urgent tasks in Uzbekistan is the modernization of the education system, improvement of the management system of general education institutions, and the introduction of modern management mechanisms. A number of reforms are being carried out in the field of education in our country. In particular, President Shavkat Mirziyoyev, within the framework of the "New Uzbekistan" concept, is putting forward important initiatives to effectively organize the management system of educational institutions and improve quality. At the same time, there are several systemic problems in the management of general education institutions, which require a comprehensive approach to be solved.



Key words: general education institutions, management system, education quality management, modern management, corruption risk, digital technologies in education, public control, transparency in management, school autonomy, educational reforms.

Butunjahon mamlakatlarida uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolda jamiyatning rivojlanishi bir qator barqaror global tendensiyalar bilan tavsiflanib, ular orasida inson resurslarini boshqarishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. "Dunyoning turli xil mintaqalarida tadqiqot institutlari tomonidan turli boshqaruv rahbarlari va xodimlardan boshqaruvni tashkillashtirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish yuzasidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, eng ko'p e'tirof etilgan yo'nalish inson resurslarini boshqarish hisoblanadi. Shu jumladan butun dunyo mamlakatlarida global va milliy raqobatbardoshlikni oshirish sharoitida oliy ta'lim va umumta'lim tizimida inson resurslarini boshqarishni rivojlantirishga oid qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Inson resurslarini boshqarishning nazariy-konseptual asoslarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvlarni va zamonaviy usullarni ishlab chiqish, oliy ta'lim va umumta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish omillarini aniqlash, xodimlarni ishga yollash jarayonlarini raqamlashtirish, inson resurslarini boshqarish strategiyalarini joriy etish hamda istiqbollarini baholash kabi masalalar bu borada amalga oshirilayotgan bir paytda O'zbekistonda ham bir qator umumta'lim muassalarida inson resurslarini boshqarish tamoillari ko'rib chiqilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017-yil 25-sentyabrda qabul qilingan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"da umumta'lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab



berilgan¹. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha: “Ta’lim tizimi taraqqiy etmagan mamlakat hech qachon taraqqiy eta olmaydi. Shu bois, biz zamonaviy ta’lim standartlarini joriy etish va maktablarni innovatsion boshqarish tizimiga o’tkazishimiz shart”².

Umumta’lim muassalaridagi inson resurslarini boshqarishda muammolar borligini e’tiroz etolmaymiz. Shulardan asosiylariga to’xtalib o’tmoqchimiz.

Umumta’lim muassasalarini boshqarishdagi muammolar 1-jadvalda berilgan **(1.1-jadval)**

Muammo	Muammo tavsifi	Manba
Boshqaruv kadrlarining yetarli darajada malakaga ega emasligi	Boshqaruv madaniyati va zamonaviy menejment yondashuvlari yetarli darajada shakllanmagan.	Karimov I., 2021, Ta’limda innovatsion boshqaruv: nazariya va amaliyot, Toshkent, Fan, 45-bet
Boshqaruv tizimining markazlashganligi	Markaziy organlarning haddan tashqari ko’p funksiyalarga ega bo’lishi natijasida hududiy va mahalliy maktablarning mustaqilligi cheklanmoqda.	Tahlil natijalari
Ochiqlik va shaffoflikning yetishmasligi	Jamoatchilik nazorati zaif, bu korrupsiya va byurokratiya holatlariga zamin yaratmoqda.	O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hisobotlari, 2023-yil
Axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi	Zamonaviy raqamli texnologiyalar yetarli darajada joriy etilmagan, bu boshqaruv samaradorligini pasaytiradi.	Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2023-yil

¹

² Prezident Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati, 2022-yil



Umumta'lim muassasalarini boshqarishdagi muammolarning kelib chiqish omillarini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin. **(1.2-jadval)**

Muammo kelib chiqish omillari	Izoh
Qonunchilikdagi bo'shliqlar va normativ-huquqiy hujjatlarning o'zaro muvofiqlashmaganligi	Maktablarni boshqarish bo'yicha huquqiy asoslar bir-biriga zid yoki to'liq shakllanmagan.
Maktab rahbarlari va pedagoglarining malaka oshirish tizimi zamonaviy talabga javob bermasligi	Rivojlangan davlatlardagi boshqaruv kompetensiyalari bizda hali yetarlicha joriy qilinmagan.
Maktablarni moliyalashtirish tizimidagi nomutanosibliklar	Maktablar moliyaviy ta'minotda hududiy farqlarga ega, ayrim hududlarda mablag' yetishmaydi.
Jamoatchilik va ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarining sustligi	Maktab boshqaruvida jamoatchilik va ota-onalarning ishtiroki yetarli emas.

Biz shunga aminmizki, O'zbekistonda umumta'lim muassasalarini boshqarish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni tizimli hal etish nafaqat ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, balki kelajak avlodni har tomonlama rivojlangan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan komil shaxs sifatida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim boshqaruvidan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, ta'lim muassasalarini boshqarishda samaradorlikni ta'minlash uchun zamonaviy menejment texnologiyalarini joriy etish, boshqaruv tizimini bosqichma-bosqich decentralizatsiya qilish, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga qat'iy amal qilish zarur.

Shuningdek, boshqaruv jarayonlariga keng jamoatchilikni jalb etish, ota-onalar, mahalliy hamjamiyat va fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik o'rnatish



ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, sohaga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish umumta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu boisdan, ta'lim tizimidagi boshqaruv muammolarini tizimli tahlil qilish va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, xalqaro tajribani o'rganish va milliy o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda umumta'lim muassasalarini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy menejment yondashuvlarini joriy etish, rahbar va boshqaruv kadrlarining kasbiy salohiyatini muntazam oshirish, maktablarning moliyaviy va boshqaruv mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ta'lim muassasalarining ochiqqligini ta'minlash hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish va bu borada rahbarlarni o'qitish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaati, 2022-yil.
2. «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi». Lex.uz.
3. Karimov I. Ta'limda innovatsion boshqaruv: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hisobotlari, 2023.
5. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hisobotlari, 2023.